

**Kasbining chin fidoiysi hazrati inson OYBEK**

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti  
14-21 guruh talabasi **Zafar O'rolov**

Davom etar yo'lda adib hayoti...  
Yo'l... yo'l mo'l, daryodan ketgan irmoqday  
O'g'illarda, qizda po'lat qanoti,  
„Bobojon”i dilin tutib mayoqday  
Nabiralar boshlar shu yo'ldan yo'lni.

Buyuk bu uyquni etarkan ardoq,  
„Oybek ishlayapti!” deydi nasllar...  
O'z ko'rkini ko'rib tasvirlarida  
„Oybek ishlayapti!” deydi asrlar...

XX asrning dastlabki dekadasi ko'plab buyuklar tavvalludiga guvoh bo'lgan bu ko'hna zamin yana bir buyuk ijodkorning ham dunyoga kelishiga guvoh bo'ldi. Ha bu o'sha o'z tabiri bilan aytganda she'riyat ministri Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek edi. She'r va nasriy doston romanlarni mubolag'asiz ko'p (umumiy hisobda o'n jilddan oshiq) va ho'p ( barcha asarlari yuksak saviyada dil bog'idan gul yaproqlariga, yurak qonidan siyoh olib, naqshday bezab) ijod etgan Oybek o'z kasbi, adabiyotning chin oshig'i edi. Butun umr ta'lim olishda, o'qish- o'rganish, tolibi ilmlik, ijod qilish, dunyo adabiyotini o'qish, o'rganish va tarjimalar qilish, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Hazrati Bobur va boshqa ko'plab buyuk yozuvchilarimiz asarlarini o'rganish, tafakkur qilish bilan bir qatorda sevgiga to'la qalbli mehribon umr yo'ldosh, farzandlarini jonidan ortiq suygan ota hamda ilm o'rganmoqni istagan yoshlarga chinakam mayoq ustoz edi. Oybek domlaning qanday inson bo'lganlari xususida ul kishining eng yaqin insonlari bo'lmish umr yo'ldoshlaridanda to'laqonliroq ta'riflay oluvchi bo'lmasa kerak. Buni biz u kishining „Oybegim mening “ asarida yaqqol ko'rishimiz mumkin:

Savdoning ipagi qalbing o'rasa,  
Ruhingda bulbullar dard-la yig'lasa,  
Aytma hech menga ko'nglim sezmasin,  
Savdolarga sira oshno bo'lmasin.  
Hayollar ufqiga boquvchi o'rtoq,  
So'ylama hayoldan, men undan ko'proq.  
Sen kabi ko'zlarim dardlar sochmasin,

Qalbimda savdolar chechak ochmasin.

„Oybek ulug’ inson bo’lgani uchun muqaddas insoniy tuyg’ularni teran his etar, bizning qalbimiz payqay olmagan sevgi va sevinch, g’am va alam pardalaridan ko’tarilgan nozik ohanglarni zukkolik bilan ilg’ab olar edi” – deb yozgan edi Zarifa Saidnosirova.

Ko‘plab sohalar yo‘nalishlarda aql va salohiyatga ega barcha fanlardan bilimlarni birdek o‘rganayotgan adibimiz asosiy yo‘li ilm yo‘li yoki ijod yo‘li qaysi bo‘lishi haqida: „Hozir sharq va g‘arb falsafasini o‘qish ila mashg‘ulman. Iqtisodiy fanlar o‘z yo‘lida boradi, albatta. Shu g‘ayratimni, shu havasimni bir fan ustida markazlashtirsam, ehtimol, tuzukkina olim bo‘la olar edim. Ammo men energiyamni bir qancha tarmoqlarga bo‘lib yuborganman. Bu odatdan sira ayrila olmayman. Bu yomon. Ba‘zan o‘zimga: - men kim va kim bo‘laman? degan savol berib qo‘yaman. Javob, tabiiy, yo‘q. " derdi. Shukurki barcha adabiyot ixlosmandlari uchun biz avlodlar uchun ham Oybek domla keyinchalik ijod ummoni, sevgisi ila o‘z yo‘nalishini adabiyot tomon tamoman burgan edi.

Butun ijod yo‘li davomida Oybek o‘zining durdona asarlarini turli siyosiy taribsizliklar, sog‘liq bilan bog‘lik muammolar (uzoq vaqt davom etgan insult), urush va ocharchilik davrlarda bo‘lishiga qaramay, imkon qadar chalg‘ishlarsiz bor diqqat e’tiborini qaratgan holda teran mehnat ila ijod ummonidan qonib ichgan holda yaratdi. 1937-yil voqealari har kun o‘nlab yuzlab ma’rifatparvarlarning qamalishi, surgun qilinishi, qatag‘oni davrida ham Oybek butun yoz ichi o‘z bog‘idan chiqmay ijod qildi hamda „Qutlug’ qon’’day go‘zal va o‘lmas bir asarni yaratdi. Ulug’ vatan urushi yillarida esa yana bir latif asar „Quyosh qoraymas’’ romanini yaratdi. „Oltin vodiya shabadalar’’, „Hamza’’, „Qizlar’’, „Pokiston taassurotlari’’, „Zafar va Zahro’’, „Haqgo‘ylar’’, „O‘ch’’, „Bobom’’, „Ulug’ yo‘l’’, „Bolalik’’, „Nur qidirib’’ kabi doston, roman va qissalarni hamda tugatilmay qolgan „Temur’’ va „Bobur’’ dostonlarini yozdi. Hayotini Alisher Navoiy hazratlarini umr va ijod yo‘llariga bag‘ishladi va „Navoiy’’, „Guli va Navoiy’’ dek umri boqiy go‘zal asarlarni biz kelajak avlod uchun meros qoldirdi. Bu hayotda hech narsa osonlikcha qo‘lga kiritilmasligini, tinimsiz ilm olish, o‘qish- o‘rganish mehnat, toqat va bardosh tom ma’noda odamni haqiqiy hazrati Inson qilib toblashini domlaning umrlari misolida namoyon etdi. Shul mavzuda adibimiz go‘zal misralar bitgan:

Qo‘limda kitob,  
Har satri yolqin-  
Dunyoga xitob...  
Fikrlar toshqin.  
To‘xtasa fikr,  
Men axir bir tosh.  
Evoh, bu ne sir?!  
O‘ysiz- qovoq bosh.  
Tinsa tafakkur-  
Qalbda mangu qor.



Ojiz tasavvur:  
Hanuz ko'p sir bor...

Xulosa o'rnida biz avlodlar buyuk ajdodlarimizga hamisha hurmatda bo'lishimiz ularni ezozlab umr va ijod yo'llarini chuqur o'rganmog'imiz hamda ummonlarcha ibratlar olib uni o'z hayotimizda tatbiq etmog'imiz zarur. Zero sa'diy Sheroziy hazratlari aytganlaridek biz barchamiz tuproqdan bo'lgan loylarmiz illo kim gullarla birga yurib ularning hushbo'y atridan o'ziga olsa va atrofga shul ifordan tarqatsa qanday go'zal , aks holda hazrati inson emas oyoq osti loy bo'lib qolajakmiz.

### Na'matak

Nafis chayqaladi bir tup na'matak  
Yuksakda, shamolning belanchagida ,  
Quyoshda ko'tarib bir savat oq gul,  
Viqorla o'shshaygan qoya labida.

Nafis chayqaladi bir tup na'matak  
Mayin raqsiga hech qoniqmas ko'ngil,  
Vahshiy toshlarga ham u berar fusun,  
So'nmaydi yuzida yorqin tabassum.

Yanoqlarni tutib oltin bo'sa-chun,  
Quyoshga tutadi bir savat oq gul!  
Poyida yig'laydi kumush qor yum-yum...  
Nafis chayqaladi bir tup na'matak...  
Shamol injularni separ chashmadak  
Boshida bir savat oq yulduz-chechak,  
Nozik salomlari naqadar ma'sum!  
Tog'lar havosining firuzasidan  
Mayin tovlanadi butun niholi.  
Vahshiy qoyalarning ajib ijodi:  
Yuksakda raqs etar bir tup na'matak,  
Quyshga bir savat gul tutib hursand!